

MAXSUS YORDAMGA MUXTOJ BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMGA JALB ETISH

Umarova Saboxon Minavvarovna - QDPI katta o'qituvchi

Maxmudjonov Furqatjon Farhodjon o'g'li – Talaba II – kurs

Annotatsiya

Ushbu maqolada maxsus yordamga muxtoj bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi ularni o'qish va yozishga o'rgatish muammolarini ijtimoiy hayotga moslashtirishga ko'mak berish, bu ishlarni samarali amalga oshirish, maxsus soha xodimlari hamda nogiron bolalar ota-onalariga amaliy yordam berish kabi masuliyatli ishlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, integrasiya, ijtimoiy jamiyat, korreksiya, kompensasiya, maxsus ehtiyoj, huquq va imkoniyatlar

Involvement of children with special needs in inclusive education

Umarova Sabokhon Minavvarovna - is a senior teacher at QDPI

Son of Makhmudjonov Furkatjon Farhodjon - Student II - course

Abstract

In this article, the education and upbringing of children in need of special assistance is about helping to adapt the problems of teaching them to read and write to social life, effective implementation of these tasks, practical assistance to special field workers and parents of disabled children. such responsible work is thought about.

Key words: Inclusive education, integration, social society, correction, compensation, special needs, rights and opportunities

Вовлечение детей с особыми потребностями в инклюзивное образование

Умарова Сабохон Минавваровна – старший преподаватель КДПИ.

Сын Махмуджонов Фуркатжон Фарходжон - Студент II – курс

Аннотация

В данной статье образование и воспитание детей, нуждающихся в специальной помощи, идет о содействии адаптации проблем обучения их чтению и письму в общественной жизни, эффективной реализации этих задач, практической помощи специальным работникам и родителям детей-инвалидов думается такая ответственная работа.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, интеграция, социальное общество, коррекция, компенсация, особые потребности, права и возможности.

Maxsus yordamga muxtoj bolalar asosiy muamolarini ular o'zlari yashab turgan muxitdan, oiladan uzoqda ta'lim tarbiya berish bilan hal qilib bo'lmaydi. Jamiyat o'z a'zolariga javobgarlikni o'z zimmasiga olmas ekan, cheklab qo'yilgan huquq va imkoniyatlar qaytarib berilmas ekan ijtimoiy integrasiyaga erishish qiyin.

Maxsus ehtiyojli bolalarni ta'lim tarbiyasida tenghuquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ammo bugungi kunda ham juda ko'plab bolalar turli xildagi sabablarga ko'ra ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Inklyuziv ta'limga jalb qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralarini ko'rib chiqish ya'ni mutaxassislarini tayyorlash, malakasini oshirishga

oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Alohida yordamga muxtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor:

Birinchidan, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalalanadilar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi buyukligini nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e'tibor bilan munosabatda bo'lishni his etadilar.

Ikkinchidan, nogiron bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonma-yon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi.

Bu ishlarni muvaffaqiyatini xar bir davlatning qonunlarida aks etilishi zarur. Chunki, qonunlar, ularni kerakli moddiy va ma'naviy resurslar bilan ta'minlanishini amalga oshirishni kafolatlaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar-o'quvchilarga ta'lim berishda, ota-onalar, mahallalar pedagoglar, mutaxassislar hamkorligida faoliyat ko'rsatishlarini talab qilinadi va majburiy shart hisoblanadi. Alohida ehtiyojli bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'z qobiliyat darajasida faoliyat ko'rsatish, ta'lim olishi, kasb-xunar o'rganishi va rivojlanishi mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa maxsus yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy tomondan himoyalandilar, ijtimoiy xayotda teng xuquqliligini, o'z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar.

Alohida ehtiyojli bolalar uchun tashkil etilgan segregasion-maxsus, yopiq turdagi muassasalarda bolalardagi mavjud nuqsonlar ancha-muncha yuqori darajada korreksiyalansada, ammo bolalarning maktab jamoasidagi tor doiraga tushib qolishlari natijasida ijtimoiy jamiyatga moslashishi, kelajakda normal rivojlanishdagi bolalar qatori faoliyat yuritishlarida juda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Maxsus maktablar mana shu jihatlari bilan juda katta kamchiliklarga ega. Bundan tashqari maxsus ehtiyojli bolalarni barcha qatori keng jamoatchilik davrasidan ajratgan holda yashashlari ham demokratiya nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydi. Chunki maxsus ehtiyojli bolalar ham barcha qatori haq-huquqlarga ega. Shuning uchun ham 1990 yilda Tailandda juda muxim konferensiya o'tkazildi. Bu konferensiya "Ta'lim hamma uchun" maqsadini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, unga 155 ta davlat vakillari va 150 dan ortiq nodavlat tashkilotlari qo'shildilar. Tahlil shuni ko'rsatadiki, taxminan 10-15% bolalar maxsus ta'limga muxtoj ekanligi aniqlandi.

Djomtien (Tailant)da o'tkazilgan konferensiya asosida "Ta'lim hamma uchun" shiorini qo'llab-quvvatlash va amaliyotga tadbiiq qilishni tahlil etish maqsadida 1994 yilda YUNESKO tashkiloti va Ispaniya davlati bilan hamkorlikda Salamanka - Ispaniya umumjaxon konferensiyasi o'tkazildi. Ushbu konferensiya ishtirokchilarining maqsadi va vazifasi butun dunyodagi imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim muassasalarida ta'lim olishlari uchun qulayliklar yaratish, maktabda o'qitish vazifasini amalga oshirish uchun maktab islohotlarini o'tkazish zarurligi to'g'risida fikr-muloxazalar yuritishga qaratilgan edi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb etishga bo'lgan ehtiyoj bu shunda namoyon bo'ladiki, ta'lim tizimidan butunlay chetda qolib ketayotgan maxsus ehtiyojli bolalarni ta'limga jalb etish, maxsus muassasalarga borishga yashash joyi juda uzoqda bo'lganligi yoki moddiy mablag'ning etishmasligi yoki ota-onalarning o'z farzandini maxsus muassasaga borishini hohlamasligi oqibatida qiynalyotgan ota-onalarga ko'mak berish, maxsus ehtiyojli bolalarni ijtimoiy jamiyatga erta va to'laqonli moslashtirish, teng huquqlilik masalasini hal etish, kamsitishlarni oldini olishdadir.

Inklyuziv ta'lim masalasi 90-yillarning diqqat markazida bo'lib qoldi. Janubiy Afrika va Janubiy Sharqiy Osiyodagi integrasiyalashgan ta'lim dasturlari asosida yakuniy ish hujjatlari o'rganilib chiqildi. Natijada barcha davlatlarning Ta'lim Vazirliklarida maxsus maktablar qoshidagi maxsus bo'limlarga muqobil sifatida inklyuziv ishlash uslublari qabul qilindi.

Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj uning jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun quyidagi foydali jihatlari mavjudligidan kelib chiqadi:

Inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o'z oilasi mahallasi va qarindosh-urug'lari davrasida bo'lishga imkon beradi.

Bolalarni oilasidan, uyidan uzoqda bo'lgan iternatlarga joylashtirish ularning uyi, oilasi hamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqiga to'sqinlik qiladi. Uyidan, oilasidan, ota-ona mehridan uzoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir.

Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi.

Inklyuziv ta'lim - ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilinishi o'quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko'proq o'quvchilarni qamraydigan yangi o'qitish uslublarni ishlab chiqishga undaydi. Buning nafi esa hamma bolaga tegadi.

Inklyuziv ta'lim kamsitishlarni oldini olishga yordam beradi.

Jamiyatda nogironlarning nisbatan yangilish fikr va munosabat juda yuqoridadir. Ular haqida ma'lumotlarning kamligi va ularni yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta'lim tarbiya berilishi bunga sabab bo'lishi mumkin. Bunday munosabatni yo'qotish yoki kamaytirish ancha mushkul ishdir. Lekin tajribadan shu narsa ma'lumki, kattalarga nisbatan bolalar farqli va o'xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birgalikda ta'lim tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni nogironlarga nisbatan o'zlari singari bola ekanliklarni anglab, kamsitmasliklarini ta'minlagan bo'lar edi.

Janubiy Afrika va Janubiy Sharqiy Osiyodagi integrasiyalashgan ta'lim dasturlari asosida yakuniy ish hujjatlari o'rganilib chiqildi. Natijada barcha davlatlarning Ta'lim Vazirliklarida maxsus maktablar qoshidagi maxsus bo'limlarga muqobil sifatida inklyuziv ishlash uslublari qabul qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ture Yonson "Inklyuziv ta'lim"- "Opereyshen Mersiy" Toshkent-2003 yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.
2. "Maktablar hamma uchun"- "Bolalarni qutqaring jamg'armasi" -2002 yil.
3. Umarova, S., A. Ortikova, and M. Axmedova. "CONDITIONS FOR THE OCCURRENCE OF CONFLICTS IN LABOR TEAMS AND METHODS OF CONFLICT ANALYSIS." *Science and innovation* 2.B1 (2023): 326-333.
4. Umarova, S. M. "First Aid for Bleeding." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.1 (2023): 172-175.
5. Umarova, S. M. "Protecting the Environment of Uzbekistan from Environmental." *Emergencies Journal of New Century Innovations* 3.4: 130-135.
6. Umarova, Saboxon Minovarovna, and Xurshida Murodova. "DUDUQLANISHNING KELIB CHIQUISH SABABLARI VA OLDINI OLISH." *Интернаука* 4-3 (2020): 57-58.
7. Minavvarovna, Umarova Saboxon. "Etiology of Mental Retardness." *International Journal on Orange Technologies* 3.9 (2021): 44-47.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-2

8. Minavvarovna, Umarova Saboxon. "PSYCHO-PHYSIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF SPEECH-IMPAIRED CHILDREN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 524-529.
9. Minavvarovna, Umarova Saboxon. "BASIC PATHOLOGY OF CHILDREN'S BRAIN." *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan* 1.6 (2023): 271-276.
10. Minavvarovna, Umarova Saboxon. "THE MAIN TYPES OF HUMAN WORK AND THEIR IMPACT ON THE HUMAN BODY." *Journal of new century innovations* 20.4 (2023): 74-78.
11. Muhammadjonova, Dilafruz. "ISSUES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TEACHING WEAK HEARING CHILDREN TO WRITE." *Science promotion* (2023).
12. Muhammadjonova, Dilafruz. "SPEECH DEVELOPMENT OF DEAF CHILDREN." *GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)* (2023).
13. Muhammadjonova, Dilafruz. "Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalardning sezgi va idrok xususiyatlarning o'ziga xosligi." *Science promotion* (2023).
14. QIZI, XONBABAYEVA MADINABONU ASQARJON. "Kasbiy faoliyatda zamonaviy logopedni kompetentligini rivojlantirish yo'llari." *International Conference on Developments in Education* Hosted from Delhi, India. *Scienceweb-National database of scientific research of Uzbekistan*, 2023.
15. Ibragimovna, Turg'unboyeva Zulxumor. "ZAIF ESHITUVCHI O'QUVCHILARNI NUTQIY SIFATLARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI." *Science Promotion* 1.2 (2023): 131-138.
16. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "EDUCATION OF STUDENTS WITH HEARING DEFECTS THROUGH SCIENCE LESSONS DEVELOPMENT OF SPEECH AND THINKING." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 837-844.
17. Sabirovna, Shermatova Yaqutxon. "KUYISHDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH ASOSLARI." *ILMIY TADQIQOTLAR VA JAMIYAT MUAMMOLARI* 1.2 (2023): 12-17.
18. Farkhodjanovna, Muhammadjonova Dilafruz. "INTERACTIVE METHODS FOR THE DEVELOPMENT OF EDUCATION OF CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS." *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research* 11.11 (2024): 175-181.
19. Мухаммаджонова, Дилафруз. "ПРОВЕРКА ГОТОВНОСТИ ДЕТЕЙ К ШКОЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 5.2 (2025): 97-100.
20. Avliyakov, Muzaffar Muhammedovich, Nargiza Abdurazzokovna Rafieva, and Sadoqat Bobokulovna Shodieva. "Methods of organizing independent work of students." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 8721-8727.